

**MADANIYAT VA SAN'AT TIZIMIDA MAZKUR METODLARDAN
SAMARALI FOYDALANGAN USTOZLAR FAOLIYATI HAQIDA**

Samijonova Ruhshona

*O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Cholg'u ijrochiligi" fakulteti "Xalq
cholg'ulari" yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Axadjon Mamadaliyev

*Ilmiy raxbar: O'zDK "Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasi dotsenti,
Turon fanlar akademiyasi faxriy professori*

Annotatsiya. O'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy olami va madaniy saviyasini yuksaltirish, o'quvchi yoshlarni milliy va jahon musiqa madaniyatining mumtoz asarlari, mazmunli estrada san'ati namunalaridan bahramand bo'lishi uchun zarur sharoitlar yaratish va shu asosda musiqa ta'limini yanada rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida kadrlar tayyorlashning ma'no-mazmunini tubdan yangilash, xalqaro standartlar darajasida oily malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratishga doir muhim masalalar belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu boradagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Shaxsning axloqiy va kasbiy madaniyatini shakllantirishda tizimli va aniq maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaning o'rni beqiyosdir. Bunda har bir insonga individual tarzda yondoshish hamda axloqiy madaniyatni kamol toptirishning muhim yo'nalishi hisoblangan o'z-o'zini tarbiyalashga alohida e'tibor talab etiladi.

O'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy olami va madaniy saviyasini yuksaltirish, o'quvchi yoshlarni milliy va jahon musiqa madaniyatining mumtoz asarlari, mazmunli estrada san'ati namunalaridan bahramand bo'lishi uchun zarur

sharoitlar yaratish va shu asosda musiqa ta'limini yanada rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir.

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi sharoitida uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillarni izlab topish va bu borada eng maqbul bo'lgan yangi pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tadbiiq etish zamon talabi. Ta'lim-tarbiyaga, xususan musiqa ta'limi sohasidagi yoshlarning tarbiyasiga ahamiyat berish - bu kelajak haqida qayg'urish, yurt va xalq istiqbolini o'ylash demakdir.

Musiqa cholg'ulari har bir xalqning milliy g'ururi, an'anasi, qadriyatlari o'z ifodasini topganki, ulardan taraladigan ovoz ham shunga moslashgan. Musiqiy cholg'ularda ijrochilik san'ati insoniyat ma'naviyatini tarannum etuvchi vosita, ya'ni xalq ijodiyoti mahsuli bo'lib, azal-azaldan omma orasida shakllanib, mohir soz ustalari tomonidan yasalib, tobora mukammallashib kelayotgan mo'jizaviy va ifodaviy asboblardir. Bular barchasi yaratilajak cholg'ularning shakliga va milliylik mezoniga asos bo'lib xizmat qiladi. Tarixiy davr davomida musiqiy cholg'ularga bo'lgan e'tibor doimo katta bo'lish bilan birga tarbiyaviy tomonlari ham alohida ahamiyatga ega bo'lib kelgan.

XVIII asr oxiri - XIX asr boshlarida o'zbek musiqa madaniyatida xalq va professional musiqa san'atining ko'plab yangi turlari takomillasha boshladi. O'zbek xalq cholg'ularining ijroviy imkoniyatlari kengaydi va takomillashdi. Kishilik jamiyati rivojlanishi natijasida kishilarning didi, saviyasi oshdi. Musiqiy sozlar ham jonli jarayon bo'lganligi sababli, ular talab darajasida takomillashib bordi. Oldingi asrning 30-yillarida keskin sur'atda ro'y berayotgan madaniy o'zgarishlar natijasida mavjud cholg'ularning sifat darajasi zamon talablariga javob bermay qoladi. Xalq sozgar ustalari bilan birga, qator sozandalar ham musiqiy sozlarning takomillashuviga o'z hissalarini qo'shishgan.

1930-yillar ozbek musiqa madaniyatida har tomonlama kurtak yoza boshlagan davr bo'ldi. Xususan, 1934-yilda O'zbek davlat filarmoniyasi, 1936-yilda Toshkent davlat konservatoryasi (hozirgi O'zbekiston davlat konservatoriyasi) va boshqa ko'pgina madaniyat, san'at muassasalari tashkil etildi.

1943 yilda San'atshunoslik instituti qoshida o'zbek musiqa cholg'ularini takomillashtirish bo'yicha tajriba ilmiy-tadqiqoti (tajribaxona) bo'limi tashkil etildi, tajribaxona rahbari etib V.Uspenskiy tayinlandi. 1944 yildan boshlab bu tajribaxonaga A.Petrotsyans rahbarlik qila boshladi.

O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik madaniyatining o'sishi, jahon kompozitorlari asarlarining o'zlashtirilishi, O'zbekiston bastakorlarining xalq cholg'ulari uchun maxsus asarlar yaratishdagi faol ijodiy faoliyati o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'atining yanada yuksalishi uchun muhim zamin bo'ldi. Shu bilan birga, yuqori malakali ilmiy pedagogik va ijrochi kadrlarni puxta, mukammal qilib tayyorlash masalasini kun tartibiga qo'ydi.

O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilikning keyingi davrlardagi yuksalishi Toshkent konservatoriyasining faoliyati bilan chambarchas bog'langan. 1948-yildan boshlab mamlakatimizdagi musiqa oliy o'quv yurtlarida, shu jumladan; Toshkent Davlat konservatoriyasida xalq cholg'ulari ijrochiligi bo'yicha ta'lim berish boshlandi. O'zbek xalq cholg'ulari bo'limiga (orkestr fakulteti tarkibida) rahbarlik qilish, o'quvchilarni saralab yig'ish, o'quv rejalarini tuzish A.I.Petrotsyans tomonidan amalga oshirildi. Toshkent Davlat konservatoriyasida o'zbek xalq cholg'ulari ijrochiligi bo'yicha professional ta'limni yo'lga qo'yishda V. A. Uspenskiy, M.A.Ashrafiy, A.I.Petrotsyans, I.P.Blagoveshchenskiy, B.F.Giyenko, G.G.Sobitovlar katta rol o'ynadilar.

Madaniyat va san'at tizimida ushbu ustozlarimizning kiritgan yangiliklari, metodlari, samarali mehnatlari tufayli ulkan natijalarga erishib, qoldirgan oltin meroslaridan hozirgi avlod davomchilari ham unumli foydalanib kelmoqda. Respublikamiz Mustaqillikka erishgandan keyin hamma sohalardagi kabi, musiqa san'ati sohasiga ham davlat miqyosida e'tibor qaratildi. Buning natijasida 2002-yilda O'zbekiston davlat konservatoriyasi uchun yangi, zamonaviy bino barpo etildi. Mamlakatimizning viloyatlarida yangi musiqa va san'at kollejlari barpo etildi, ayrimlari qayta ta'mirlandi, zamonaviy musiqa cholg'ulari, jihozlar bilan ta'minlandi. "Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha Bolalar musiqa

va san'at maktablari uchun zamonaviy binolar qad ko'tardi. Quvonarli joyi shundaki, yosh iqtidorlarga mo'ljallangan ushbu san'at o'quv maskanlari barcha kerakli musiqa cholg'ulari hamda jihozlar bilan ta'minlandi. Bularning barchasi Respublikamiz rahbariyatining san'atga, xususan musiqa san'atiga, uni yanada rivojlantirishga bo'lgan katta e'tiboridan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 20 aprel 2017 yil.
2. A.Odilov. "O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi". 1995 y.